



A LOOK AT THE MARRIAGE CONTRACT IN NEW UZBEKISTAN

Khuzamatova Khayotkhon Mansurovna

Kokand State University Lecturer of the Department of National Idea,
Fundamentals of Spirituality and Legal Education

xuzamatovax@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15525813>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 26th May 2025

Online: 27th May 2025

KEYWORDS

Marriage contract, legal foundations, Uzbekistan, family relations, marriage registration, dissolution of marriage, Uzbek legislation, international experience, family stability, legal importance.

ABSTRACT

This article analyzes the legal foundations of the marriage contract in New Uzbekistan and its significance in family relations. It examines the processes of marriage registration, the conclusion and dissolution of marriage contracts, as well as changes in Uzbek legislation and international experiences. The article emphasizes the role of the marriage contract in ensuring family stability and its legal importance.

ВЗГЛЯД НА БРАЧНЫЙ ДОГОВОР В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Хузаматова Хаётхон Мансуровна

Кокандский государственный университет

преподаватель кафедры национальной идеи, основ духовности и правового образования. xujamatovax@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15525813>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 26th May 2025

Online: 27th May 2025

KEYWORDS

Брачный контракт, правовые основы, Узбекистан, семейные отношения, регистрация брака, расторжение брака, узбекское законодательство, международный опыт, семейная стабильность, юридическая значимость.

ABSTRACT

Данная статья анализирует правовые основы брачного контракта в Новом Узбекистане и его значение в семейных отношениях. Рассматриваются процессы регистрации брака, заключения и расторжения брачного контракта, а также изменения в узбекском законодательстве и международный опыт. В статье подчеркивается роль брачного контракта в обеспечении семейной стабильности и его юридическая значимость.

YANGI O'ZBEKISTONDA NIKOH SHARTNOMASIGA BIR NAZAR

Xujamatova Xayotxon Mansurovna

Qo'qon davlat universiteti



Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

xujamatovax@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15525813>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 26th May 2025

Online: 27th May 2025

KEYWORDS

Nikoh shartnomasi,
huquqiy asoslar,
O'zbekiston, oilaviy
munosabatlar, nikohni
ro'yxatdan o'tkazish,
nikohni bekor qilish,
O'zbekiston qonunchiligi,
xalqaro tajriba, oilaviy
barqarorlik, huquqiy
ahamiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqola Yangi O'zbekistonda nikoh shartnomasining huquqiy asoslari va uning oilaviy munosabatlardagi ahamiyatini tahlil qiladi. Nikohni rasmiylashtirish, shartnoma tuzish va bekor qilish jarayonlari, shuningdek, o'zbek qonunchiligidagi o'zgarishlar va xalqaro tajribalar ko'rib chiqiladi. Maqola nikoh shartnomasining jamiyatda oilaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini va huquqiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

KIRISH

Dunyoda sodir bo'layotgan jo'shqin voqealar ko'plab mamlakatlarning an'anaviy qadriyatlarni, shu jumladan, oilaviy munosabatlar sohasida ham asrab-avaylash va qo'llab-quvvatlash istagini namoyish etmoqda. Ularni qo'llab-quvvatlash zarurati Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining mazmunidan kelib chiqadi, unda erkaklar va ayollarning hech qanday cheklovlarsiz turmush qurish va oila qurish huquqi mustahkamlangan, shuningdek, oila davlat tomonidan himoya qilinadigan jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini ekanligi belgilab qo'yilgan (16-modda). Shu nuqtai nazardan, oila va onalik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning darajasi Save the Children¹ xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan reytingda baholanishi muhim ahamiyatga ega.

Oila jamiyatning eng kichik, lekin asosiy bo'g'inidir. Shuning uchun jamiyatimizda oila va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oila oldidagi muqaddas burch ya'ni oilaning mustahkamligi, tinch totuvligi va faravonligi uchun har bir yosh nikohdan o'tuvchi shaxslarga diniy hamda huquqiy majburiyat hisoblanadi. Islomda oila muqaddas sanalib oilaviy munosabatlarda er-xotinning huquq va majburiyatlari har tomonlama mukammal yaratilgan.

Jamiyatimizning milliy qadriyatlari urf-odatlarida oilaviy munosabatlarining o'rni beqiyosdir. Shu bois yurt kelajagi bo'lmish yosh avlodni ta'lim tarbiyasining dastlabki bosqichi oila atalmish muqaddas qo'rg'onda shakllanishi kelajakda yetuk vatanparvar hamda o'z xalqiga vijdonan halol va pok xizmat qiluvchi shaxslarni tarbiyalashda dasturul amal bo'lib hizmat qiladi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlarni biz faqatgina sharqona qadriyatlarda shakllangan oilalarda ko'rishimiz mumkin.

¹ См.: https://en.wikipedia.org/wiki/Save_the_Children_State_of_the_World%27s_Mothers_report, мурожаат санаси: 2 март 2025 йил.



Azal azaldan jamiyatimizdagi oilaviy munosabatlarda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar o'zaro tinchlik yo'li orqali hamda kelishuv asosida hal qilingan. Mamlakatimizda oila huquq sohasida nikoh bilan bog'liq bo'lgan turli xil shartnomalar mavjud. Bularning orasidagi asosiy shartnoma bu–Nikoh shartnomasi hisoblanadi. Nikoh shartnomasi oila quruvchi subyektlar o'rtasidagi jamiyati mulkiy va nomulkiy munosabatlarni belgilab beradi. Ushbu tushunchaga asos qilib davlatimiz bosh qomusida Oila davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa, Oila qonunchiligida esa oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy va mulkiy majburiyatlari belgilanib o'tilgan.²

Yangi O'zbekistonning rivojlanish jarayonida jamiyatning asosiy va muhim masalalaridan biri bo'lgan oilaning o'rni tobora ortib bormoqda. Oilaviy munosabatlar va nikoh masalalari jamiyatning barqarorligi, farovonligi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, nikoh shartnomasi masalasi, zamonaviy huquqiy tizimda yangi yondashuvlar va normativ-huquqiy o'zgarishlar asosida shakllanib, oilaviy munosabatlarni rasmiylashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda nikoh shartnomasi nafaqat nikohda bo'lgan tomonlarning huquqiy maqomini aniqlashda, balki ularning kelajakdagi hayotini tartibga solishda ham muhim vositaga aylangan.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda bu boradagi davlat siyosati tubdan isloh qilinib, oila va nikoh institutlarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. Oilaviy munosabatlar ishtirokchilarining konstitusiyaviy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, subsidiyalar, ta'lim grantlari va ssudalar ajratish va hokazo... Aynan oilada asosiy qadriyatlar shakllanadi, dastlabki huquqiy tushunchalar, o'z huquq va manfaatlarini anglash, oila a'zolari tomonidan o'z burchlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik mas'uliyati qaror topadi.

Shu bilan birga, ushbu masalaning ilmiy rivojlanish darajasini yetarli deb hisoblash mumkin emas. Huquqiy tadqiqotlar oiladagi munosabatlar, nikoh munosabatlari, oila a'zolarining huquqiy holatini ma'muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy tartibga solishning ayrim jihatlariga bag'ishlangan. Xususan, nikoh va oilaviy munosabatlarning konstitusiyaviy-huquqiy asoslari har tomonlama (kompleks) o'rganilmagan. Bundan tashqari, oilaning uzviy institut sifatidagi voqeligiga oid ko'pgina tadqiqotlar bugungi kunga kelib tubdan o'zgargan sharoitlarda amalga oshirilganligini hisobga olish kerak. Yangilangan Konstitusiyada oila va nikoh institutlariga yondashuvlar sezilarli darajada isloh qilindi, bu esa jiddiy tahlil va tadqiqotni talab etadi. Bu dissertasiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi va ularni konstitusiyaviy-huquqiy tartibga solish masalalarini ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Nikoh va oila munosabatlarining mustahkamligi va barqarorligi, aynan davlatimiz va jamiyatimizning tinchligi, farovonligi hamda rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Oila, insoniyatning eng muhim ijtimoiy tashkiloti bo'lib, uning asoslari mustahkam bo'lgan taqdirdagina jamiyatning umumiy barqarorligi ta'minlanadi. Jahon ta'limi va ilmiy-tadqiqot

² NIKOH SHARTNOMASNING TUZILISHI VA UNING HUQUQIY ASOSI Akayeva Marapat Abduhalikovna Ilmiy rahbar: Namangan Davlat Universiteti Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasini mudiri Toshmurov Dostonbek Sherali O'g'li Namangan Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi. Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE. 175 p



muassasalarida oila va uning a'zolari, xususan, ona va bola munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oilaning jamiyatdagi o'rni va roli yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oila institutiga oid masalalar tobora dolzarb bo'lib, uning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari barqarorlashtirildi. Jumladan, 2023-yil 30-aprel kuni Referendumda qabul qilingan yangi Konstitutsiyaning [1] "Oila, bolalar va yoshlar"ga bag'ishlangan bobining 76-moddasida "Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" deb belgilangan. Bu esa oila institutining rivoji va uning a'zolarining farovonligini ta'minlashda davlatning barcha choralarni ko'rishga tayyor ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da [2] bolalar tarbiyasida oilaning yakka bo'y mas'uliyatlarini ta'kidlangan va bu borada ijtimoiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar belgilangan. Oila institutini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, undan sog'lom muhit yaratish, farzandlarning kamolotga erishishini ta'minlash uchun ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni yaratish masalalari davlat va jamiyatning diqqat markazida turganini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, ushbu muammo doirasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar, oilaviy munosabatlarni yanada chuqurroq tahlil qilish va masalalar bo'yicha yangi nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos bo'la oladi. Bu tadqiqotlar oila a'zolari o'rtasida ijtimoiy va psixologik barqarorlikni ta'minlash, jamiyatda sog'lom va farovon muhit yaratishda o'z o'rnini topadi.

Nikoh orqali insonlar o'zaro murosaga kelib, o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarishga harakat qilishadi, bu esa jamiyatda o'zaro hurmat va mehr-oqibatni rivojlantiradi. Naslning davomiyligi, ota-onaning farzandlariga nisbatan bo'lgan mas'uliyatlari va bunday munosabatlarning yosh avlodga o'rnak bo'lishi ham oila qurishning ta'sirli jihatlaridan biridir. Nikohda bo'lgan shaxslar bir-biriga har tomonlama yordam berish, birgalikda yashash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va bir-birining farovonligini nazorat qilish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadilar.

Nikoh haqida milliy qadriyatlardan.

Sizlar uchun (bu gap erkaklarga aytilyapti) onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan onalaringiz, emishgan opasingillaringiz, qaynonalaringiz, nikohingizda bo'lgan xotinlaringizning tarbiyangizda bo'lgan qizlari – mana shu sanab o'tilgan ayollarga uylanish harom qilindi. (**Qur'oni karim, Niso surasi, 23-oyat**)

Nikoh shartnomasi-er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini aniq belgilab beradigan hujjatdir. U ikki tomonning o'zaro huquqiy majburiyatlarini va mas'uliyatlarini, moliyaviy va boshqa resurslar bo'yicha kelishuvlarini ta'minlaydi. Nikoh shartnomasining yaratilishi, har ikki tomon uchun ham kelajakdagi oilaviy hayotni aniq va tartibga solingan holatda ko'rish imkonini yaratadi [3,- 33-34-b.].

Shuningdek, nikoh shartnomasi, oilada yuzaga keladigan mumkin bo'lgan nizolarni oldini olishga, ularni hal qilishga yordam beradi. Bu hujjat, ayniqsa, nikohdan oldingi va nikohdan keyingi o'zgarishlar, oila a'zolari o'rtasidagi mol-mulkni taqsimlash va boshqa masalalarda



qat'iy yo'l-yo'riq beradi. Bunday tartib, oilaviy munosabatlarni muvozanatli va barqaror qilishda juda muhim rol o'ynaydi.

Yangi O'zbekistonda nikoh shartnomasining qonuniy asoslari 2019-yilda o'zgartirilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga asoslanadi. Ushbu kodeksga ko'ra, nikoh shartnomasi nikohdan oldin yoki nikohdan keyin tuzilishi mumkin. Bunda, tomonlar bir-birining huquqlarini, majburiyatlarini va moliyaviy holatini hisobga olgan holda kelishuv tuzadi. Nikoh shartnomasi har ikkala tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi va u faqat tegishli davlat organi tomonidan rasmiylashtirilgach, qonuniy kuchga ega bo'ladi.

O'zbekistonda nikoh shartnomasining joriy etilishi, oila institutining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Bu oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, oilaviy zo'ravonlik va boshqa salbiy holatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, nikoh shartnomasi institutining joriy etilishi, jamiyatda tenglikni, ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham hissa qo'shadi. Er va xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan majburiyatlarini aniq belgilash orqali, nikoh shartnomasi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Nikohni ro'yxatga olish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi.

Birinchi qadam sifatida, kelajakdagi er-xotin FHDYO (Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish) idorasiga ariza topshirishi kerak. Ariza shaxsan taqdim etilishi lozim, va topshirilgandan so'ng, 30 kunlik kutish muddati boshlanadi. Ushbu muddat, tomonlarga nikohga tayyorgarlik ko'rish va barchasini o'ylab ko'rish uchun beriladi.

Ba'zi holatlarda, masalan, agar ayol homilador bo'lsa yoki tomonlardan biri voyaga yetmagan bo'lsa, bu kutish muddati qisqartirilishi mumkin, va nikoh shundan keyin darhol ro'yxatga olinishi mumkin.

Agar to'yga tayyorgarlik uchun ko'proq vaqt kerak bo'lsa, nikohni ro'yxatga olish muddatini 3 oygacha uzaytirish mumkin. Bunday holatlar kamdan-kam uchrasa-da, lekin ushbu imkoniyat mavjud.

Qulaylik yaratish maqsadida arizani Yagona davlat xizmatlari portali orqali ham topshirish mumkin. Bu, ayniqsa, FHDYOga shaxsan borish noqulay bo'lgan hollarda juda qulay va samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda rasmiy nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh deb belgilangan. Biroq, ba'zi holatlarda, masalan, homiladorlik kabi jiddiy sabablar yuzaga kelsa, yosh chegarasi tuman yoki shahar hokimi ruxsati bilan 17 yoshga tushirilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, belgilangan yoshga yetmagan shaxsning nikohlanishi jiddiy huquqiy oqibatlariga, jumladan, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin [4, - 142-b.].

Ijtimoiy munosabat sifatida nikoh turli jamiyat va tuzumlarda har xil shakl va tartibda mavjud. Nikohni ro'yxatga olish tartibi, nikoh yoshiga qo'yiladigan talablar har bir mamlakatda o'ziga xosdir.

Ba'zi mamlakatlarda nikoh fuqarolik-huquqiy bitim sifatida qaraladi va uni rasmiylashtirish jarayoni oila qonunchiligi emas, balki fuqaro qonunchiligi bilan belgilangan. Masalan, Fransiyada nikoh yoshi ayollar uchun 15, erkaklar uchun esa 18 yosh qilib belgilangan. Italiyada bu yoshlar tegishli ravishda 14 va 16, Germaniyada 16 va 21, AQShda esa turli shtatlarga qarab 14-18 va 15-21 yosh o'rtasida farqlanadi. Nikoh tuzishda, ayniqsa,



kelajakdagi er-xotinlarning mol-mulki haqidagi masalalar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu maqsadda nikoh shartnomalari tuziladi [5,- 142-b.].

Nikohni qayd etish mumkin bo'lmagan holatlar qonuniy cheklovlar bilan belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Agar nikohlanuvchilardan biri boshqa rasmiy nikohda bo'lsa.
2. Agar nikohlanuvchilar yaqin qarindoshlar bo'lsa (ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar, hatto ular tug'ishmagan bo'lsa ham, yoki asrab olganlar va asrab olinganlar).
3. Agar sud qarori bilan nikohlanuvchilardan biri ruhiy kasallik tufayli qaror qabul qilishga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa.
4. Agar nikohlanuvchilardan biri hali belgilangan rasmiy nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, ya'ni 18 yoshdan kichik bo'lsa.
5. Agar nikoh majburiy tarzda, shantaj yoki zo'rlash natijasida tuzilsa, ya'ni er-xotinlarning o'zaro roziligi bo'lmasa.
6. Agar nikohni tuzishga rozi bo'lgan tomonlardan biri yolg'on ma'lumot taqdim qilgan yoki nikoh tuzish uchun qonuniy talablarni buzgan bo'lsa.
7. Agar nikohdan bir necha marotaba ajrashgan shaxslar o'zaro qarorlaridan sud tomonidan noqonuniy deb topilgan bo'lsa.

Bunday holatlar nikohning qonuniy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tish majburiy jarayon hisoblanadi va bu maxsus tibbiy muassasalarda bepul tarzda amalga oshiriladi. Ushbu ko'rikda ruhshunos, narkolog, dermatovenerolog va ftiziatr kabi mutaxassislar bilan maslahatlashish talab qilinadi. Agar shaxs 50 yoshdan katta bo'lsa yoki boshqa maxsus holatlar mavjud bo'lsa, ko'rik ixtiyoriy ravishda o'tkazilishi mumkin [6,- 160-b.].

Bu tibbiy ko'rik kelajakdagi oilaviy munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jiddiy kasalliklarning mavjud emasligini aniqlashda yordam beradi. Shuningdek, bu sizning salomatligingiz va huquqlaringizni himoya qilish, oilaviy hayotingizni yanada sog'lom va barqaror qilish maqsadida amalga oshiriladi.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda nikoh shartnomasi tizimining joriy etilishi, oilaviy munosabatlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu oila institutini rivojlantirishda muhim huquqiy asoslarni yaratib, oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish va oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Nikoh shartnomasi nafaqat jamiyatning rivojlanishiga, balki har bir oilaning o'zgaruvchan sharoitlarda ham barqarorligini saqlab qolishiga yordam beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.10.2023 yildagi 550-son. "Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida"
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.



4. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy kodeksi". 2019.
5. Davletshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uning bartaraf etish yo'llari. o'zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp.ilm.amal.anj.ma'ruz. qisqacha bayoni. - T.: 1993.
6. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Sharq" 2006.
7. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi.: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. - T.: Sharq.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nikoh>
9. <https://lex.uz/acts/20596>
10. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>